

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03.04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**QOBILOVA AZIZA AHROROVNA**

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATIDA**  
**YUMORNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI**  
**(Anvar Obidjon va T.Adashboyev ijodi misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Qobilova Aziza Ahrorovna**

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar she’riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalari  
(Anvar Obidjon va T.Adashboyev ijodi misolida) .....5

**Кобилова Азиза Ахроровна**

Художественно-эстетические функции юмора в современной узбекской  
детской поэзии (На примере произведений Анвара Обиджона и  
Т.Адашбаева).....25

**Kobilova Aziza Ahrorovna**

The artistic and aesthetic functions of humor in contemporary Uzbek children's  
poetry (In the example of works of Anvar Obidjon and T. Adashboyev).....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03.04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**QOBILOVA AZIZA AHROROVNA**

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATIDA**  
**YUMORNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI**  
**(Anvar Obidjon va T.Adashboyev ijodi misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2446 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Jamilova Bashorat Sattorovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ahmedova Shoira Ne'matovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Barakayev Rahmatullo Barakayevich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "12.09" soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-29-14. Email: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" avgust da tarqatildi.

(2024-yil "28" avgust dagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Y.S.Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor



**A.R.Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi,  
dozent



**D.Z.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida bolalar she'riyati tabiatining o'ziga xosligi, janriy tarkibi va mavzu-mundariyasi hamda obrazlilik darajasi kabilarni tadqiq etish yo'nalishidagi qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Jumladan, bolalar adabiyotiga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkorning badiiy mahorati qirralarini ochish, kichkintoylar olamini aks ettirishda yumordan foydalanish, nabotot va hayvonot, tabiat va jamiyat munosabatlari talqinidagi komizm va lirizm ifodasining falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarga vobastaligi masalalarini ilmiy va nazariy asoslash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar adabiyotida poetik tafakkur evrilishlari, turli transformatsion jarayonlarni yoritish, she'riyatda yumor ifodasi, uning shakllanish omillari, kulgi hosil qiluvchi badiiy holat va detallarni aniqlash, yumoristik obrazlar ifodasida tabiat va jamiyat munosabatini ochib berish bo'yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan bolalar she'riyatida yumoristik kulgi tabiati, uning takomil belgilari, badiiy-estetik vazifalarini, hajviy obrazlarga xos xususiyatlarni umumlashtirish, ijodkorning yumor yaratish mahorati singarilarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida o'zbek bolalar she'riyatining taraqqiyot xususiyatlari, unda yumoristik kulgi yaratish an'analari, yumorning adresliliigi va uning tarbiya quroli ekanligi, ijodkorning yumoristik obraz va sujet yaratishdagi san'atkorligi singari masalalarni bugungi she'riyat namunalari misolida yoritishga katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, "...Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga, dnyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan badiiy, ma'rifiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga bevosita xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

Shu nuqtai nazardan ma'naviy-axloqiy kamolotga xizmat qiluvchi bolalar adabiyotining mustaqillik yillaridagi taraqqiyotiga xos muhim tamoyillar, jumladan, bolalar she'riyatida yumoristik mazmunning yetakchilik qilishi, yumoristik obraz yaratish an'analari, bunda badiiy detal va vositalardan foydalanish, ijodkor individualligi, shakl va mazmun mutanosibligi singari jihatlariga e'tibor qaratish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб маҳсулотларни чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги фармойиши // Халқ сўзи, 2017 йил 13 январь.

yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 18-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va yangi adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida kulgi filologiya, sotsiologiya, falsafa, pedagogika fanlari doirasida o'rganilgan<sup>2</sup>. Uning genezisi, o'ziga xosliklarini o'rganishga keng e'tibor qaratib kelinmoqda<sup>3</sup>. Jumladan, M.M.Baxtin, V.Y.Propp, O.M.Freydenberg, E.B.Uayt, S.X.Yaxiyayeva, L.V.Berezina, Z.N.Isayeva, B.Flippov, S.K.Karamov, V.A.Lukov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kulgining asoslari va badiiy tafakkurga ta'siri o'rganilgan<sup>4</sup>. V.Y.Propp tomonidan komik holat va kulgi muammolari borasida olib borilgan kuzatishlarda yumoristik kulgining ichki ko'rinishlari alohida tasniflangan bo'lsa<sup>5</sup>,

---

<sup>2</sup> Рокотьянская Л.О. Юмор: сущность, виды, функции в обществе. Автореф. дисс. учен. степ. канд. философ. наук. – Москва, 2019. – 29 с.; Зелезинская Л.А. Юмор как предмет социально-философского анализа. Автореф. дисс. учен. степ. канд. философ. наук. – Благовещенск – 2014; Беретарь, Н.Г. Социокультурные особенности юмора в ценностной системе этноса: На материале адыгской культуры: диссертация кандидата социологических наук: 22.00.06. – Майкоп, 2006. – 174 с.; Кулинич М.А. Семантика, структура и прагматика англоязычного юмора. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора культурологических наук. – Москва 2000. – 35 с.; Карасик А.В. Лингвокультурные характеристики английского юмора. Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 193 с.

<sup>3</sup> Attardo S., Pickering L. Handbook of language and humor. New York: Routledge Timing in the performance of jokes // HUMOR: International Journal of Humor Research. 2011. № 24 (2). – С. 233–250; Davies C.E. Sociolinguistic approaches to humor. In S. Attardo (Ed.), The Routledge handbook of language and humor. 2017. – P. 472–488; Corduas M., Attardo S., Eggleston A. The distribution of humor in literary texts is not random: A statistical analysis // Language and Literature. 2008. № 17 (3). – P. 253–270; Martin Rod. Psychology of Humor: An Integrative Approach. Elsevier Academic Press: Burlington MA. 2007. – 446 p.; Schnurr S., Plester B. Functionalist discourse analysis of humor. In S.Attardo (Ed.), The Routledge handbook of language and humor. 2017. – P. 309–321.

<sup>4</sup> Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва: «Мысль», 1990; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: «Мысль», 1999; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – Москва: «Мысль», 1997; Карамов С.К. Литературно-критическая статья «О юморе и сатире». «Си-пресс», 2019. – 140 с.; Луков В.А., Федотов О.И. Сатира. Знание. Понимание. Умение. 2013. С. 313–316.

<sup>5</sup> Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: «Мысль», 1999.

A.V.Karasik kulgili holatning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor qaratadi<sup>6</sup>. Bu jihatdan, V.Sultanova. Z.Axmedova, Sh.Axmedova, G.Jo'rayeva kabi o'zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlari ham alohida e'tirofqa loyiq. Z.Odilovanning "O'zbek bolalar she'riyatida yumor va satira (60–70-yillar)" nomli dissertatsiyasida o'tgan asrning 60–70-yillari bolalar she'riyati materiallari asosida satira va yumordan foydalanish mahorati hamda yumorning kichkintoylar adabiyotidagi o'rni tadqiq etilgan bo'lsa, Sh.Axmedova yozuvchi Said Ahmadning yumordan foydalanish mahoratini monografik aspektda o'rgangan. G.Jo'rayeva esa o'zbek bolalar she'riyatidagi hajviyaning xususiyatlarini tadqiq etgan.

Adabiyotshunosligimizda bolalar adabiyotining ayrim jihatlarini o'rganish jarayoni o'tgan asrning 80–90-yillaridan ancha jonlandi. Jumladan, bolalar adabiyoti muammolari bo'yicha qator nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi<sup>7</sup>, monografiya va to'plamlar, risolalar chop etildi<sup>8</sup>.

---

<sup>6</sup> Карасик А. В. Лингвокультурные характеристики английского юмора. Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2001.

<sup>7</sup> Кахрамонов К. Роль литературной критики в развитии реалистических принципов в узбекской советской детской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 20 с.; Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 32 б.; Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеърлятида маънавий масаласи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеърлятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 29 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси ва унинг ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004. – 23 б.; Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев шеърляти поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.; Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 22 б.; Нусратова Ҳ. Сафар Барноевнинг бадий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.; Тўраева Д. Қудрат Ҳикматнинг бадий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 53 б.

<sup>8</sup> Ўзбек болалар адабиёти ва адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1989. – 312 б.; Болалар адабиёти ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 1991. – 212 б.; Қахрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. Тошкент: Фан, 1991. – 120 б.; шу муаллиф. Болаликка ошурфта кўнгил. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 40 б.; Баракаев Р. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.; шу муаллиф. Жонажоним, шеърят. – Тошкент: Чўлпон, 1997. – 88 б.; Баракаев Р., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 160 б.; Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 32 б.; Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012. – 40 б.; Дилшод Ражаб, Г.Жўраева. Маҳорат марралари. – Тошкент: Paradigma, 2018. – 36 б. Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.; Баракаев Р. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.; Баракаев Р., Очилов Э. Бадий тасвир маҳорати. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – 48 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 116 б.; шу муаллиф. Ўзбек болалар адабиётда поэтик тафаккур янгиланиши. – Бухоро: FAN VA TA'LIM, 2022. – 236 б.; Матжон Сафо. Икки эл ардоғида. – Тошкент: Мусиқа, 2009. – 44 б.; Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Тошкент: Мусиқа, 2011. – 94 б.; Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2022. – 320 б.; Беғуборлик олами куйчиси. – Тошкент: Наврўз, 2011. – 186 б.; Болажонлик саодати (Сафар Барноев замондошлари хотирасида). – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 216 б.; Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 112 б.; Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 2011. – 136 б.; Дунёга танилган адиб (Худойберди Тўхтабоев замондошлари наздида). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 212 б.; Норматов У. Саргузашт сардори. – Тошкент: Адиб, 2012; Турдиева К. XX асрнинг 60-80-йилларида ўзбек болалар шеърлятида маънавий масалалари. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2013. – 88 б.; Адашбоев Т., Ражаб Д. Сатрлардан таралган меҳр. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – 40 б.; "O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017. – 150 б.; Тўраева Д. Қудрат Ҳикматнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Muharrir, 2019. – 164 б.; Турсунбой Адашбоев замондошлар хотирасида. – Тошкент: Sharq, 2019. – 336 б.; Носир Фозилов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2019. – 3-283 б.; Тўхтаева Н. Истиклол даври ўзбек

B.Ashurovning “Tursunboy Adashboyev she’riyati poetikasi”, G.Jo’rayevaning “O‘zbek bolalar she’riyatida hajviy obraz yaratish mahorati (XX asrning 80-90-yillari materiallari asosida)”, N.To‘xtayevaning “Istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari” kabi dissertatsiyalarida muayyan davr bolalar she’riyatidagi mahorat masalalari tadqiq etiladi. Biroq hozirgi bolalar she’riyatida yumorning o‘rni va badiiy-estetik vazifalari masalasi tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolib kelmoqda. O‘zbek bolalar she’riyatida yumorning alohida o‘rni, badiiy-estetik vazifasi, jumladan, Anvar Obidjon, T.Adashboyev singari serqirra ijodkorlar she’riyatidagi yumorning rang-barang jilolari, janriy, badiiy-kompozitsion xususiyatlari monografik yo‘sinda, yaxlit o‘rganilmagan. Binobarin, hozirgi davr o‘zbek bolalar she’riyatida yumor yaratish omillarini adabiy jarayon kontekstida yaxlit ijodiy hodisa sifatida o‘rganish va taraqqiyotining yetakchi xususiyatlarini, janriy-uslubiy takomili, badiiy-estetik vazifalarini tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyotshunosligida shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020–2024-yy.) yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi zamon o‘zbek bolalar she’riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalarini Anvar Obidjon va T.Adashboyev ijodi misolida tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek bolalar she’riyatida yumorning o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari hamda taraqqiyot tamoyillari, yumoristik obraz yaratish an’analari va usullarini aniqlash;

G‘afur G‘ulom, Quddus Muhammadiyning yumoristik she’rlari qiyosi orqali Anvar Obidjon, T.Adashboyev ijodida an’anaviylik va yumoristik mahoratning o‘ziga xos jihatlarini shoirlar yashagan davr va mafkura bilan bog‘liqlikda ko‘rsatib berish;

zamondosh bolalar shoirlarining yumoristik she’rlar yaratishdagi individual uslubi, kulgi hosil qiluvchi badiiy holat va detallar, yumorning turli janrlarda namoyon bo‘lishini ochib berish;

Anvar Obidjon va T.Adashboyevning yumoristik asarlarida bolalar idroki orqali ifoda etilgan ijtimoiy hayot hodisalarining ramziy talqinini yoritishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Anvar Obidjon va T.Adashboyev asarlari tanlangan. Shuningdek, qiyosiy tahlillar jarayonida G‘afur G‘ulom, Sulton Jo‘ra, Po‘lat Mo‘min, Quddus Muhammadiy, shu bilan birga, istiqlol davri bolalar shoirlaridan H.Imonberdiyev, Dilshod Rajab, X.Komilov kabi taniqli bolalar shoirlari ijodiga ham murojaat qilingan.

---

болалар шеърияти. – Тошкент: LESSON PRESS, 2020. – 134 б.; Солижонов Й. Анвар Обиджон поэтик олами. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 216 б.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek bolalar she‘riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalarini Anvar Obidjon va T.Adashboyev ijodi misolida o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, sotsiologik, analitik, tasniflash va biografik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yumorning genezisi o‘zbek xalq latifalariga borib taqalishi, uning bolalar she‘riyatida shoirning voqelikka munosabatini bildiruvchi vosita rolini o‘tashi, tarbiya quroli ekanligi, lirik qahramon tabiatidagi individual xususiyatlarni ko‘rsatib berishi, voqelikka nisbatan tanqidiy munosabatni ifodalashi kabi spetsifik xususiyatlari aniqlangan;

bolalar she‘riyatida yumor o‘yin-kulgi orqali yangi tushuncha va g‘oyalarni o‘rganishga yordam beruvchi *ta’limiy*, ma’lum axloqiy saboqlar, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni singdiruvchi *tarbiyaviy*, pozitiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan *terapevtik* hamda *badiiy tafakkurni o‘stirish* kabi estetik vazifalarni bajarishi ilmiy asoslangan;

Anvar Obidjonning yumoristik she‘rlariga xos: adresliligi nuqtayi nazaridan barcha yoshdagi bolalar olamini qamrab olishi, kulgili detallar, ramziy obrazlar orqali ijtimoiy hayot, jamiyatdagi muammolarni aks ettirishi, tanlangan sarlavhalar kalit vazifasini o‘tashi va kulgi ruhini aks ettirishi, topishmoqnamo mazmun kasb etishi singari individual xususiyatlar aniqlangan;

Tursunboy Adashboyev ijodida yumor she‘riy ertaklar, hangoma mazmunidagi she‘rlar, loflar, parodiyalarda kuzatilishi, ularda yengil kulgi, hajv, ramziy-majoziy fikrlash tarzining ustuvorlik qilishi, tabiatdagi turli jonivorlar, hayvonlar, parrandalar obrazlari, so‘z o‘yinlari vositasida kulgi yaratilishi, tamsillardan foydalanish kabilarda namoyon bo‘lganligi G‘afur G‘ulom, Quddus Muhammadiy singari shoirlar she‘rlari muqoyasasi orqali oydinlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

“xushmuomala kulgi”ning sujetli she‘rlar kompozitsiyasida kulminatsion nuqta, tugunni tashkil etishi, hayvonlar va turli predmetlarning ramziy obrazi vositasida ijtimoiy muammolarni ochib berishi, bolalarni zukkolik, tafakkur qilishga o‘rgatishi singari jihatlar badiiyat namunalari misolida ilmiy dalillangan;

Anvar Obidjonning zamonaviy masxaralamalar, lof mazmuni va kulgili manzaralar, hayot voqeligiga teskari holatlar tasviri, yumorga oid istiloh va atamalarni qo‘llash, narsa-hodisa va ashyolarni jonlantirish, so‘qma va taqlid so‘zlardan foydalanish orqali yumor yaratganligi dalillangan;

G‘afur G‘ulom va Anvar Obidjon, Quddus Muhammadiy va T.Adashboyev yumoristik she‘rlarini qiyoslash orqali ijtimoiy davr, jamiyat taraqqiyoti hamda tafakkur yangilanishi bilan bog‘liq mavzu va mohiyat rang-barangligi, ifoda usullarining takomillashib borganligi ko‘rsatib berilgan;

Anvar Obidjon xalqimiz tarixi, madaniyati, qadriyatlari bilan bog‘liq tushunchalarni kichkintoy bolalar tiliga olib kirishda; T.Adashboyev tabiat va

jamiyat munosabatini aks ettirishda yumordan mahorat bilan foydalanganligi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublikamiz hamda xorijlik olimlarning fikr va qarashlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilganligi; adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy bolalar she‘riyatida yumorning ko‘rinishlari, badiiy-estetik vazifalari aniqlangan ilmiy xulosalardan bolalar adabiyotshunosligi yo‘nalishidagi ishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi fikr-xulosalardan “Adabiyotshunoslikka kirish”, “O‘zbek bolalar adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Badiiy tahlil asoslari” va “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslik lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hozirgi o‘zbek bolalar she‘riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalarini aniqlash bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

yumorning genezisi o‘zbek xalq latifalariga borib taqalishi, uning bolalar she‘riyatida shoirning voqelikka munosabatini bildiruvchi vosita rolini o‘tashi, tarbiya quroli ekanligi, lirik qahramon tabiatidagi individual xususiyatlarni ko‘rsatib berishi, voqelikka nisbatan tanqidiy munosabatni ifodalashi kabi spetsifik fikr-xulosalardan IZ-2021020813 “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 16-fevraldagi №04/1-384-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar va monografiyalarning bolalar adabiyoti bo‘yicha ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

bolalar she‘riyatida yumor o‘yin-kulgi orqali yangi tushuncha va g‘oyalarni o‘rganishga yordam beruvchi *ta’limiy*, ma’lum axloqiy saboqlar, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni singdiruvchi *tarbiyaviy*, pozitiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan *terapevtik* hamda *badiiy tafakkurni o‘stirish* kabi estetik vazifalarni bajarishi singari ilmiy xulosalaridan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017–2020) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 10-noyabrdagi 7.11/23-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha o‘zbek va qoraqalpoq bolalar she‘riyatida yumor yaratishda folklorizm unsurlari, mifologik obrazlar, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va

diniy qarashlarning o‘zaro qiyosiy-tipologik tarzda talqin etilganligi haqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

Anvar Obidjonning yumoristik she’rlariga xos: adresliligi nuqtayi nazaridan barcha yoshdagi bolalar olamini qamrab olishi, kulgili detallar, ramziy obrazlar orqali ijtimoiy hayot, jamiyatdagi muammolarni aks ettirishi, tanlangan sarlavhalar kalit vazifasini o‘tashi va kulgi ruhini aks ettirishi, topishmoqnamo mazmun kasb etishi singari individual xususiyatlar aniqlangan materiallari va xulosalaridan, Tursunboy Adashboyev ijodida yumor she’riy ertaklar, hangoma mazmunidagi she’rlar, loflar, parodiyalarda kuzatilishi, ularda yengil kulgi, hajv, ramziy-majoziy fikrlash tarzining ustuvorlik qilishi, tabiatdagi turli jonivorlar, hayvonlar, parrandalar obrazlari, so‘z o‘yinlari vositasida kulgi yaratilishi, tamsillardan foydalanish kabilarda namoyon bo‘lganligi G‘afur G‘ulom, Quddus Muhammadiy singari shoirlar she’rlari tahliliy materiallaridan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Nilufar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 2023-yil 27-noyabrdagi 44-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek bolalar she’riyatida yumor yaratish asoslari, uning taraqqiyot omillari, yumoristik obrazlar tizimi va tarkibi, bunda shoirlarning ijodiy mahoratiga xos yetakchi tamoyillar haqida to‘garak a‘zolarining bilimi oshirilishiga erishilgan. Qolaversa, Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza”, “Adabiy muhit” teledasturlarida efirga uzatilgan ko‘rsatuvlar, shuningdek, “Muloqot va munozara”, “Qadriyatlar qadim beshigi” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 29-dekabrdagi 01-09/532-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dasturlarning mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan, ilmiy-ommaboplik xususiyati kuchaytirilgan, mazkur ko‘rsatuv va eshittirishlarga yosh tomoshabin va tinglovchilarning qiziqishi oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari yuzasidan 9 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma‘ruza qilinib, nuhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 16 ta maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalairning asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda, nashr etilgan

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 6 faslni o‘z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzuining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan,

tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek bolalar she’riyatida yumoristik kulgi yaratish an’analari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Uning ilk fasli **“Yumoristik kulgining xususiyatlari hamda nazariy asoslari”** tarzida belgilangan.

XX asr boshlarida ko‘p asrlik adabiyotimizdagi o‘ziga xos an’analarga ta’sirida qaror topgan bolalar adabiyoti kichkintoylar, bolalar va o‘smirlar hayoti haqida bahs yurituvchi, ularning orzu-intilishlarini, zavqovar sarguzashtlarini aks ettiruvchi ma’naviy-ma’rifiy, estetik omil sifatida tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib kelmoqda. Ayniqsa, bolalar she’riyati sohaning ilk kashshoflari Abdulla Avloniy, Hamza, Elbek kabi ma’rifatparvarlar ijodi orqali yuksalib bordi. Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min va boshqa o‘nlab bolalar shoirlarining har biri she’riyatning turli janriy yo‘nalishlarida yumoristik obraz yaratish, tasvir ifodasida o‘ziga xos maktab paydo bo‘lishiga xizmat qildilar.

Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyev ijodi ham shu ma’noda boy xalq og‘zaki ijodi, jahon va o‘zbek bolalar adabiyotidagi serqirra an’analarga ta’sirida badiiy yuksak cho‘qqigacha erishdi, deyish mumkin. Zotan, mazkur shoirlarning yumoristik asarlar yaratishdagi o‘ziga xos uslubiy, ijodiy mahorat qirralari tahsinga sazovor.

So‘z san’atining ajralmas qismi bo‘lgan yumor va kulgining o‘zaro munosabati, xususiyatlari – ilmiy-adabiy jamoatchilik, turli millat-elatlar, xalqlar va mamlakatlar umumadabiyoti va bolalar adabiyotshunosligida ko‘plab mulohazalarga, tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Zero, hazil, hajv, kulgi, mutoyiba, kinoya kabilarning inson ruhiyati, tafakkuri, shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liqligi nazarda tutilsa, u har bir xalq, millat, makon va zamonda o‘ziga xos ma’no-mazmun kasb etishi shubhasiz.

Jahon adabiyotshunosligida yumor – hajviyot tarkibidagi kulgi, komiklik, hazil bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganilib, uning etimologiyasi, tadrijiy tamoyillari, xususiyatlari haqida salmoqli tadqiqotlar, ilmiy-usuliy maqolalar yaratilgan. Xususan, yumor tili haqidagi ma’lumotnoma (spravochnik – S.Attardo, L.Pickering)<sup>9</sup> hamda yumor psixologiyasiga oid tadqiqotlarda (Rod A.Martin)<sup>10</sup> mazkur yo‘nalishdagi minglab maqolalarning ro‘yxati keltiriladiki, bu – hodisa mohiyatining teran o‘rganib kelinayotganidan dalolatdir.

Kulgi va yumorning o‘zaro aloqadorligi haqidagi tadqiqotlarda kulgi haqida alohida fanning mavjudligi borasidagi ta’kid e’tiborni tortadi. “Gelotologiya” deb nomlangan bu yangi fan asoschilari Birmingem universiteti (Angliya) olimlari Metyu Gervase va Devid Uilsonlardir. Ularning fikricha, bundan ikki-to‘rt million

---

<sup>9</sup> Attardo S., & Pickering L. Handbook of language and humor. New York : Routledge Timing in the performance of jokes // HUMOR: International Journal of Humor Research. – 2011, № 24 (2). – C. 233–250.

<sup>10</sup> Rod A. Martin Psychology of Humor: An Integrative Approach. Elsevier Academic Press: Burlington MA. 2007. – 446 p.

yil ilgari yashagan qadimgi ajdodlarimiz ilk marta kulishgan. Aniqrog‘i, ibtidoiy odamlarning yurish jarayonida kulgili tarzda qoqilib yiqilishi ilk marotaba kulgiga omil bo‘lgan. Shuningdek, olimlar o‘tkir qisqa nafas chiqarishga o‘xshagan “ha-ha-ha” tovushlarini kulgining paydo bo‘lish tarixiga bog‘lab, tilning birinchi rudimenti sifatida qaraydilar, ayni paytda yiqilib tushish hozir ham masxarabozlar majburiy repertuarining bir qismi sifatida saqlanib qolganiga e‘tibor qaratadilar<sup>11</sup>.

Anglashiladiki, kulgi, odatda, natija va niyatlar yoki umidlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik (masalan, har qanday hazilning kutilmagan yakuni) ekan. Shuningdek, kulgining chastotasi turli davrga (bugungi kunda odamlar yuz yil ilgarigidan ko‘ra kamroq kulishi), yoshga (bolalar kattalardan ko‘ra 20 baravar ko‘proq kulishi), milliy-madaniy an‘analarga (masalan, yevropaliklar afrikaliklarga qaraganda kamroq kulishi) va jinsga qarab (ayollar erkaklarga qaraganda ko‘proq kulishi) tafovutlangan. Amerikalik gelotolog Robert Provin e‘tiroficha esa erkaklar hazillashishga va kulgiga sabab bo‘lishga ko‘proq moyil bo‘lib, turli kulgi maktablari, professional komediyachilarning yetakchilari ham erkaklar bo‘lishgan.

L.A.Belova “Yumorning milliy o‘ziga xosligi” maqolasida shunday yozadi: “Kulgi madaniyati va quvnoqlik hamisha hamma joyda mavjud bo‘lgan. Jumladan, qiziqarli hazillar, qiqqillamalar, qiziqmachoqlar, bayram marosimlari kabilarda...” Tadqiqotchi kulgi bilan bog‘liq bu hayotiy va adabiy hodisalar dastavval “yumor” deb atalmaganligini ta’kidlaydi. XVI asrga kelib odamlar kulgili vaziyat yoki fikrga nisbatan “g‘alati”, “kulgili” degan so‘zni qo‘llashgan. Faqat XVII asrga kelib “*yumor*” atamasi iste’molga kirgan.

“Yumor” atamasi lotincha “humor” – suyuq, yoki shilimshiq (suyuqlik) degan so‘zdan olingan (Daniel Vikberg, 1998) bo‘lib, yunon olimi Gippokrat (m.a. IV asr) inson salomatligi uchun uning tanasida to‘rtta asosiy suyuqlik (humorem), ya’ni qon, shilimshiq suyuqlik (slizi), qora safro va sariq safro (jelch) muvozanati zarurligini ta’kidlagan. Rimda yashagan shifokor Galen (eramizning II asri) esa ana shu to‘rt suyuqlikning psixologik xususiyatlari haqidagi fikrni ilgari surib, masalan, qonning ustunligi sangvinik, qora safro ko‘pligi esa melanxolik inson xarakteri, temperamentini belgilashini asoslaydi<sup>12</sup>.

M.M.Baxtin, V.Y.Propp, O.M.Freydenberg kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kulgi va hazilning satirik asoslari o‘rganilgan<sup>13</sup>. D.P.Nikolayev tadqiqotlarida ham kulgi satiraning muhim quroli ekanligi tadqiq etilgan<sup>14</sup>. A.N.Luk yumorning ko‘pincha shafqatsiz masxara deb ta’riflanishiga e‘tiroz bildirmagani holda, hazil tuyg‘usi har qanday ta’rifdan kengroq ekanligini qo‘shimcha qiladi<sup>15</sup>.

<sup>11</sup> <https://www.nkj.ru/archive/articles/13581/> (Наука и жизнь, Смех по-научному. Основы гелатологии) “New Scientist” (Angliya) va “Decouverte” (Fransiya) jurnallari materiallari asosida.

<sup>12</sup> O‘sha manba. – B. 26.

<sup>13</sup> Алексеев В.Л. Оружием политической сатиры. – Москва: “Мысль”, 1979; Буишин А.С. М.Е.Салтыков-Щедрин. – Ленинград, “Мысль”, 1970; Луначарский А.В. О смехе //Советский фельетон. – Москва, «Мысль», 1959. – С. 439–442; Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. – Москва: «Мысль», 1962; Эльсберг Я.Е. Вопросы теории сатиры. – Москва: «Мысль», 1957; Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва: «Мысль», 1990; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: «Мысль», 1999; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – Москва: «Мысль», 1997.

<sup>14</sup> Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. – Москва: «Мысль», 1962.

<sup>15</sup> Лук А.Н. О чувстве юмора и остроумии. – Москва: Издательский дом: Искусство, 1968. – С. 39.

Bundan anglash mumkinki, kattalar kulgisi keng qamrovli o'rganilgani holda, bolalar kulgisi va uning ko'rinishlari juda oz tadqiq etilgan. Holbuki, kulgining eng sof va samimiy ko'rinishi bolalarda uchrashi, uning chastotasi, dinamikasi, omillari psixologik, sotsiologik, lingvistik jihatdan teran tadqiq etishga loyiq. Yumor kulgi bilan vobastalikni o'zida mujassam etar ekan, hazilga yo'g'rilgan voqea, holat, so'z, tasvir kabilar yumoristik asarlarda yorqin ko'zga tashlanishi tabiiy.

Yumor va kulgining aloqadorligi insonning tabiiy organizmi hamda individual xarakteri bilan chambarchas bog'lab o'rganilgani psixologik tadqiqotlar asrida o'z ahamiyatini namoyon etmoqda. Jumladan, bolalar shoirlarining barchasi ham yumoristik she'rlar yoza olmasligi, yoki bolalarning barchasi ham undan birdek estetik zavq tuya olmasligini shu bilan izohlash mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligi va ilmiy manbalarda ham yumorning rang-barang talqinlari mavjud. Jumladan, Said Ahmad hajviyotini tadqiq etgan Sh.Axmedova kulgining psixik, fiziologik, falsafiy ko'rinishlari, yoki umuman, jonli hayotdagi vazifasi emas, balki badiiy asardagi o'rnini ta'kidlab, "yumor kulgisining badiiy tasvir vositasi, obraz yaratish usullaridan biri sifatidagi rolini oydinlashtirish"ga erishadi<sup>16</sup>.

Kichkintoylarning quvnoqlik orqali hayotga, atrof-olamga munosabatini shakllantirish, biror bir kamchilikni kulgi vositasida badiiy aks ettirish yumorning bosh xususiyatidir. Shu o'rinda o'zbek xalqining ulug' shoiri A.Oripov:

Dunyo bir boladir, sho'x va betimsol,

Uning axtargani shodlik va kulgu, –

satrlarini bitganida bola va kulgu so'zlarini parallel qo'llagani bejiz emasligi anglashiladi. Negaki, bolalar kulishga, hazil-mutoyibaga o'ch bo'ladilar. Bolaning birinchi tabassumi nafaqat onani, balki uning atrofidagi barchani xursand qiladi. Kichkintoylar o'zi uchun hayotning har bir yorqin va yoqimli ko'rinishini, xoh Yangi yil bayrami archasi, xoh yangi o'yinchoq bo'lsin, yoki qushlarning chug'urlashi-yu jonivorlarning ovozi eshitib ham xursand bo'lib kuladi. Tabiatan quvnoq va xushchaqchaq, samimiy, hazilga moyil insonlarning kulgisi ham shunday tabiiylikka ega.

O'zbek bolalar she'riyatida yumor yaratish an'analari turli avlod bolalarining xarakter-xususiyatlari, tafakkuri, jamiyat va tabiatga munosabati fonida o'zgarib, turlanib, badiiy-estetik vazifasi takomillashib kelganligini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan turli avlod bolalar shoirlari dunyoqarashi va ijodiy uslubida ham qator o'zgarish va yangilanishlar ko'zga tashlanadi. Shularni hisobga olib, ishda zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida yumoristik she'rlar yaratish an'anasini XX asr 30-70-yillari davridagi, istiqlolgacha bo'lgan davrdagi hamda istiqlol davridagi ifodasi nuqtayi nazaridan tasniflash asosida, tadrijiy yo'sinda o'rganish ma'qul ko'rildi. Shunga ko'ra, ishda G'afur G'ulom, Sulton Jo'ra, Quddus Muhammadiy she'rlari misolida yumorning ma'rifiy-estetik, ijtimoiy vazifasidan boshlanib, kichkintoylar qalbiga zavq-shavq olib kirishga, ularning ma'naviy olamini boyitishga, badiiy so'z mohiyatini idrok etishni o'rgatishga qaratilgan muhim

---

<sup>16</sup> Axmedova Sh. Said Ahmad hajviyotida badiiy mahorat: F.f.n. diss. autoref. – T., 1994. – 31 b.

adabiy-estetik hodisa darajasiga ko'tarilgani asoslandi. Shu asosda hozirgi zamon bolalar she'riyatida yumoristik obraz va sujet yaratish an'alaridagi o'ziga xosliklar T.Adashboyev, Anvar Obidjon, H.Imonberdiyev, X.Komilov she'rlari misolida tahlil etildi.

Birinchi bobning *“O‘zbek bolalar she’riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalari”* nomli ikkinchi faslida hozirgi bolalar she'riyatimizdagi yumor ko'rinishlari, tabiati, muhim ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Chunki, bolalarning yumoristik she'rlari ham endilikda ijtimoiy-siyosiy va maishiy-hayotiy ma'no kasb eta borib, bolalar fe'l-atvorida uchraydigan shaxsiy qusurlardan ko'ra, umumahamiatga ega savodsizlik, befarosatlik haqidagi yumoristik ifoda ularni zukko bo'lishga chorlayapti, deyish mumkin. Qolaversa, bunday she'rlarning kompozitsion soddaligi, sujetining ixchamligi, ulardagi yechimning hayot haqiqatiga teskariligi kulgiga sabab bo'ladi.

Anvar Obidjonning yumoristik she'rlaridagi poetik ifoda shakllari, ularning tuzilishiyoq yumor. Bir misra birgina so'zdan iborat, yoki to'rt misra – to'rtta so'z – to'liq she'r. Masalan, “Itning taklifi”da o'qiymiz:

Yuring bog'da,  
Salqinlaymiz.  
Birgalashib  
Akillaymiz<sup>17</sup>.

Yoki, “Hakkaning va'dasi”:

Tekin bering,  
Kavshayman.  
O'g'rilikni  
Tashlayman<sup>18</sup>.

Qisqalik, insonlar fe'l-atvorini hayvonlarga ko'chirib, majoziy mazmun ifodalash orqali kulgi yaratish hozirgi bolalar she'riyatida yetakchi. Kichik yoshdagi bolalarga bu ifoda, itning “taklifi” haqiqat tuyulib, kulgi uyg'otasa, kattalarda ijtimoiy hayotimizdagi turli toifadagi kishilarning kinoyaviy obrazi sifatida tassurot qoldiradi.

Dilshod Rajabning “Eshak” she'ri shu jihatdan e'tiborni tortadi:

Ko'rdim yarim dunyoni,  
Aytsam sizga rostin man.  
O'qimagan bo'lsam-da,  
Emasman xor, betayin.  
Obro'yimiz: hech qayga  
Mensiz bormas xo'jayin<sup>19</sup>.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi va adabiy asarlarda bu hayvon haqida juda ko'p rivoyatlar, hajviy obrazlar mavjud. Garchi eshak hamisha og'ir yuk ostida yurishga majbur bo'lsa ham, kattalar ko'pincha dangasa, quloqsiz bolalarni shu hayvon nomi bilan koyiydilar. Dilshod Rajab she'ridagi eshak poetik nutqini yumoristik ifodaning

<sup>17</sup> Обиджон А. Масхарабоз бола. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – В. 20.

<sup>18</sup> O'sha manba. – В. 23.

<sup>19</sup> Исомиддинов З., Ражабов Д. Энди зерикмайман. – Тошкент: Юлдузча, 1991. – В. 53.

yangilangan talqini deyish mumkin. Zukko o'quvchining bu kinoyaga fahmi yetadi, xo'jayininig minib yurishini o'ziga "obro'" deb bilganiga kuladi, albatta. "Yarim dunyoni ko'rishi"ga sabab bo'lgan ilmsizlik, ayrim yurtdoshlarimizning qora ishchi sifatida "dunyo kezib" yurgani, ularga egalik qilib turgan "xo'jayinlar" mohiyatini anglash orqali haqiqiy xor-u zorlik ilmsizlikdan ekanini tushunib yetadi. Demak, bu o'rinda kulgi qo'zg'atuvchi muhim omil eshak tilidan aytilgan latifa, ya'ni maqtanishning mo'tadil hayot tarziga nomuvofiqligidir.

Ishda shu yo'nalishda sermahsul ijod qilgan Anvar Obidjon, T.Adashboyev, H.Imonberdiyev kabi shoirlarning yumoristik she'rlari tahlil qilinib, u shoirning voqelikka munosabatini bildiruvchi vosita rolini o'tashi, tarbiya quroli sifatida lirik qahramon tabiatidagi individuallik, quvnoqlik va shumlik xususiyatlarini ochishi, asarni o'qishli qilib, kichkintoylarni har xil illatlardan xalos bo'lishga da'vat etishi, yumor hissi bilan birga to'g'ri tanqid qilish madaniyatini o'stirishi kabilar aniqlandi.

Bolalar she'riyatida yumor rang-barang vazifalarni o'tashi mumkin. Ammo quvnoqlik orqali bolaning hayotga, atrof-olamga munosabatini shakllantirish, biror bir kamchilikni kulgi vositasida badiiy aks ettirish yumorning bosh xususiyatidir. Shunga ko'ra, o'zbek bolalar she'riyatida yumordan foydalanishning o'ziga xos badiiy-estetik vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ta'limiy: yumor bolalarga o'yin-kulgi vositasida yangi tushuncha va narsa-hodisalarni o'rganishga yordam beradi, nutq va madaniyatni so'z va obrazli ifodalar orqali rivojlantirish vazifasini bajaradi.

2. Tarbiyaviy: yumor yordamida bolalar dunyoqarashiga ma'lum axloqiy saboqlar, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni osonlik bilan singdirish mumkin.

3. Terapevtik (davolovchi): bolalarning kundalik hayotida yumor tuyg'usini his qilishga o'rgatish orqali ularda pozitiv fikrlash qobiliyati rivojlanadi, xushchachaqlik va samimiylilik fazilatlarini tarbiyalanadi.

4. Badiiy tafakkurni o'stirish vazifasi: badiiy ijodga xos obrazlilik, ramziylik, majoziylik orqali she'rdagi rang-barang ma'no qirralarini anglash, so'zni idrok qilish hissi shakllanadi.

Ikkinchi bob "**Anvar Obidjon she'rlarida yumorning adresliligi**" deb nomlangan. Uning dastlabki fasli "***Kichkintoylarga mo'ljallangan yumoristik she'rlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari***" tarzida belgilangan. Badiiy adabiyot o'zining insonshunoslik tabiatidan kelib chiqib, bola tarbiyasini muhim vazifalaridan biri deb biladi. Bolalar uchun yozilgan asarlarning o'ziga xosligi uning adresliligidadir. Har bir davr bolalar kitobxonligida voqelik, avvalo, yosh avlod idroki, tasavvuri va tushunchasiga muvofiq tushunarli va emotsional, rang-barang, sodda va aniq bayon etilishi talab qilinadi. Jumladan, bu jihat bolalar she'riyatiga ham daxldor. Aynan turli yoshdagi o'quvchilar ruhiyatini teran ilg'ay olgan sinchkov shoirlarning she'rlari o'z o'quvchisini tez topadi. Shu ma'noda, Anvar Obidjonni dastavval, kichkintoylar shoiri, deyishga asosimiz bor. Xususan, uning yumoristik she'rlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi jajjivoylar olami alohida ko'zga tashlanadi.

Shoir yumoristik she'rlarining yana bir xususiyati diologik nutqlar asosiga qurilganidir. Masalan, “Bu o‘yinchoq-ku...” she’ri to‘liq savol-javobdan iborat:

- Bu miltiqmi?
- Ha.
- Qo‘shdig‘mi?
- Ha.
- Sotiladimi?
- Ha.
- Otiladimi?
- Va-a-a!<sup>20</sup>

Oxirgi ovoz bejiz bunday chiqmadi. Yosh qahramon savol beravergach, oxiri uni “paq” etib otib ko‘rsatgani anglashiladi. Qo‘rqib ketgan bolakayning ovozi o‘quvchini ham cho‘chitib yuboradi va shuning o‘zi kulgi uyg‘otadi. Bunday hol har bir oilada bo‘lishi tabiiy: kichkintoylar savol beravergach, kattalarning sabri tugab, baqirib yuboradi. Shumtaka, quv bolalar shunda qochib qoladilar, yoki maza qilib kuladilar. Qo‘rqoqroq bola bo‘lsa, yig‘lab yuborishi tayin. Shoir tanlagan detal va sujet aynan shuning tamsili deyish mumkin.

Anvar Obidjon she'rlarida shunga o‘xshash ikki, uch, to‘rt yoshlilarning poetik obrazini ham uchratish mumkin. Masalan, “Ikkidan o‘tganlar” she’rida ularning shu yoshidagi “kamchilik”lari ustidan yengil kulinadi:

- Yur ko‘chaga      – Ketmay turgin,
- Hey, Ramiz.      Jo-o-on Hotam,
- Ariqqa              Quriguncha
- Tosh otamiz.      Ishtoncham<sup>21</sup>.

O‘zbek bolalar she’riyatida, aytish joizki, hali 2-3 yoshlilarga atalgan yumoristik she’rlar ko‘p ham yaratilmagan, aniqrog‘i, ishtonchasini ho‘l qilib qo‘yadigan yoshdagi bolalar obrazi deyarli uchramaydi. Anvar Obidjon yumor yo‘li bilan ularning adresati-auditoriyasiga murojaat qila olgani e’tirofli. Shu o‘rinda rus bolalar shoiri, adibi va adabiyotshunosi K.Chukovskiyning mashhur “Ikkidan beshgacha” asari diqqatni tortadi. Kitobning nomidanoq unda aynan maktabgacha yoshdagi kichkintoylar olami tadqiq etilgani anglashiladi. Asarda shu yoshdagi jajji o‘g‘il-qizlarning atrof-olam haqidagi tasavvurlari, so‘zga munosabati, qiziqishlari, til xususiyatlari keng qamrovli tahlil qilingan<sup>22</sup>.

Anvar Obidjon ijodiga oid tadqiqotlar yaratilgan<sup>23</sup>, maqolalar yozilgan<sup>24</sup> bo‘lsa-da, uning yumoristik she’rlar yaratish mahorati, shoir asarlarida yumorning badiiy-estetik vazifalari, tarixiy-tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari maxsus

<sup>20</sup> Обиджон А. Масхарабоз бола. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – В. 67.

<sup>21</sup> O‘sha manba. – В. 74.

<sup>22</sup> Чуковский К. От двух до пяти. – Москва: Правда, 1990. – С. 73-402.

<sup>23</sup> Иброҳимова З. Кувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2005. – 32 б.; Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеърятининг етакчи хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 56 б.; Маматалимов З. Анвар Обиджон шеърятининг бадий-маърифий хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б. Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърятинида ҳажвия. Дисс. (DSc), 2021.

<sup>24</sup> Barakayev R. Anvar Obidjonning nurli ijodi. Ma’rifatga tashna millat kerak yurtga. Saylanma. – Т., 2024. – В. 235.

o‘rganilmagan. Adabiyotshunos olimi Z.Ibrohimova Anvar Obidjon ijodi haqida mulohaza yuritib, shoirni “bolalarning kulgiga o‘ch xalq ekanligini aslo unutmaydi”, deya ta’riflaydi.

Chindan ham, Anvar Obidjon she’rlarida yumorning barcha yoshga mo‘ljallangan namunalari topiladi. Bog‘chaga boradigan jajji bolakaylardan tortib, kichik maktab yoshidagi bolalargacha, o‘smirlar-u kattalarga xos va mos bo‘lgan yumoristik she’rlar shoir ijodiy merosida salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, shoirning “Kumush uy” turkumiga kirgan “Chalasavod” she’rida endigina yozishni o‘rganayotgan ayrim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanballigi, e’tiborsizligi majoziy talqin vositasida “tanqid” ostiga olinadi:

Eshak qamish –	“Salam, ashna,
Ruchkada,	Sag‘misan,
Maktub yozdi	Yoki pishkan
Cho‘chqaga:	Yag‘misan?” <sup>25</sup>

Kichkintoylar maktubdagi so‘zlarda imlo xatosi borligini ilg‘ab, qolaversa, “ko‘cha tili” so‘zlarini qo‘llagani bois chalasavod eshakning ustidan kulishadi. Va tengdoshlari orasida o‘zlari ham shunday ahvolga tushib qolmaslik uchun ko‘proq mashq qilish harakatiga tushishadi. Shoirning maqsadi ham shu: hayvonlar obrazidan foydalanib, kichkintoylarda uchrab turadigan kamchiliklarni beozor kulgi ko‘magida tuzatish.

Turkumdan o‘rin olgan “Qurumsoq” she’ridagi “qalamim odosh bo‘ladi” deb yozmaslikni bahona qilgan Mirsalim, “Ogohlantirish” she’ridagi tushida holva ko‘rsa, ber deb g‘alva ko‘taradigan ukasini ogohlantirgan Ravshan, “Achinish” she’ridagi loyga botgan ukasi tufayli kalishi iflos bo‘lishidan xavotirlangan aka kechinmalari ham aynan kichkintoylar ruhiyatiga mos kulgili holatlardir.

